

DAVLAT VA KORPORATIV XARIDLARNI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA TAHLILI

Yakubov Ulugbek Kasimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliyaviy tahlil” kafedrasi professori, DSc.

Annotatsiya: Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektning pul oqimlarini tahlili asosida debitor va kreditor qarzlarini samarali boshqarish, xaridlar jarayoni monitoringini tashkil etish orqali moliyaviy barqarorlik hamda xavflarni kamaytirish masalasi yoritilgan. Davlat va korporativ xaridlarni moliyaviy tahlil ko‘rsatkichlari, usullari bayon etilgan. Davlat va korporativ xaridlarning moliyaviy tahlili asosida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalarini yaxshilash, xarajatlarini maqbullashtirish va moliyaviy xavflarni kamaytirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish va ko‘rsatkichlarni baholash, moliyaviy prognozlar tuzish va xavflarni tahlil qilish, xaridlar samaradorligini tahlil qilish asosida xavflarni boshqarish, xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy strategiyasini shakllantirish, investitsiyalarni tahlil qilish va baholash masalalari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Davlat va korporativ xarid, moliyaviy tahlil, investitsiya, strategiya, samaradorlik, prognoz, debitor qarz, kreditorlik qarz, moliyaviy hisobot, moliyaviy ko‘rsatkichlar.

СИСТЕМА И АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ, ОТРАЖАЮЩИХ ГОСУДАРСТВЕННЫЕ И KORPORATIVНЫЕ ЗАКУПКИ

Якубов Улугбек Касимович

Ташкентский государственный экономический университет

Профессор кафедры «Финансовый анализ»,

доктор экономических наук.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос эффективного управления дебиторской и кредиторской задолженностью хозяйствующего субъекта на основе анализа денежных потоков, финансовой устойчивости и снижения рисков посредством организации мониторинга процесса закупок. Описаны показатели и методы финансового анализа государственных и корпоративных закупок. На основе финансового анализа государственных и корпоративных закупок разрабатываются предложения по улучшению финансовых результатов хозяйствующего субъекта, оптимизации его затрат и снижению финансовых рисков. Освещены вопросы анализа финансовой отчетности и оценки показателей, составления финансовых прогнозов и анализа рисков, управления

рисками на основе анализа эффективности закупок, формирования финансовой стратегии хозяйствующего субъекта, анализа и оценки инвестиций.

Ключевые слова: Государственные и корпоративные закупки, финансовый анализ, инвестиции, стратегия, эффективность, прогноз, дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, финансовая отчётность, финансовые показатели.

SYSTEM OF INDICATORS AND ANALYSIS REPRESENTING PUBLIC AND CORPORATE PROCUREMENT

Professor Ulugbek Kasimovich Yakubov, DSc

Department of Financial Analysis
Tashkent State University of Economics

Abstract: The article examines the issues of ensuring financial stability and reducing risks through the effective management of accounts receivable and payable, as well as by organizing monitoring of the procurement process, based on the analysis of cash flows of business entities. It presents financial analysis indicators and methods applicable to public and corporate procurement. On the basis of financial analysis of public and corporate procurement, proposals have been developed to improve the financial performance of business entities, optimize expenditures, and mitigate financial risks. The study highlights the analysis of financial statements and evaluation of indicators, the preparation of financial forecasts and risk assessments, the management of risks through procurement efficiency analysis, the formation of financial strategies for business entities, as well as the analysis and evaluation of investments.

Keywords: Public and corporate procurement, financial analysis, investment, strategy, efficiency, forecasting, accounts receivable, accounts payable, financial reporting, financial indicators.

Kirish

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash, mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni aniqlash hamda ular bo'yicha axborot olish tartibini takomillashtirish orqali davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtiroki yanada kengaytirilmoqda. Mamlakat hududida:

- o'stirilgan yoki ma'lum huquqlar asosida yig'ib olingan o'simlik mahsulotlari;
- tug'ilgan va parvarish qilingan tirik hayvonlar;
- yetishtirilgan o'simlik mahsulotlari va hayvonlardan olingan mahsulotlar;
- ovchilik, baliqchilik va dengiz ovi mahsulotlari;
- yuqorida ko'rsatilgan mahsulotlardan tayyorlangan tovarlar;

- ishlab chiqarishda foydalanilgan import materiallari qiymatining foizlardagi ulushi tovar tannarxida 70 foizdan oshmaganda (mahalliyashtirish darajasi 30 foizdan kam bo'lmaganda);

- tovar ishlab chiqarishda foydalanilgan import xom ashyo va materiallarni texnologik jarayonlar orqali qayta ishlash natijasida ularning TIF TN bo'yicha dastlabki to'rtta kodining istalgan biri darajasida o'zgarishi sodir bo'lganda;

- TIF TN bo'yicha dastlabki to'rtta kodi tovar kodi bilan bir xil bo'lgan import materiallarning ishtirok etishiga ularning foizlardagi qiymati tovar tannarxida 5 foizdan oshmaganda mahalliy tovarlar deb tan olinadi.

Quyidagi hollarda tovarlar mahalliy deb e'tirof etilmaydi:

saqlash yoki transportda tashish vaqtida tovarlarning saqlanishini ta'minlash bo'yicha muomilalar;

tovarlarni sotish va transportda tashishga tayyorlash bo'yicha muomilalar (tovar turkumini maydalash, tovarlarni jo'natishni tashkil qilish, saralash, qaytadan o'rash);

maxsus bilim, ko'nikmalar yoki maxsus dastgoh, asbob-uskunalar talab qilinmaydigan oddiy yig'uv muomilalari;

tovarlarni (tarkibiy qismlarni) aralashtirib hosil qilingan mahsulotga unga dastlabki tarkibidan jiddiy farqlanadigan xususiyatlarni bermaslik va boshqalar¹.


Keskin raqobat muhiti, innovatsion taraqqiyot, moliyaviy texnologiyalardan foydalanishning kengayib borishi davlat va korporativ xaridlarni amalga oshirishda moliyaviy tahlil va samarali xaridlar boshqaruvini talab etmoqda. Xalqaro hamda milliy moliya tashkilotlari, reyting agentliklari ham davlat va korporativ xaridlarni samarali tashkil qilish, shuningdek boshqarish masalalarida moliyaviy tahlil natijalarini e'lon qilib kelmoqda.

Moliyaviy tahlil asosida samarali tashkil etilgan davlat xaridlari, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatbardosh bozorni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababdan, davlat va korporativ xaridlar tizimni yanada isloh qilish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or xorij tajribalarini joriy etish orqali xaridlar samaradorligini oshirish bugunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Negaki, davlat va korporativ xaridlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, zarur hamda maqbul narxlardagi mahsulot (ish, xizmat)lar bilan o'z vaqtida ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

2025-2030-yillar uchun mo'ljallangan mamlakatning rivojlanish strategiyasida: davlat xaridlari tizimini takomillashtirish, shaffoflikni oshirish orqali raqobat muhitini kuchaytirishga hamda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Xususan, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025–2027-yillarga mo'ljallangan budjet dasturlarida davlat xaridlari hamda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun 2025

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.10.2024 yildagi 712-sonli "Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

yilda 30,5 mlrd so‘m, 2026 yilda 33,6 mlrd so‘m, 2027 yilda 36,9 mlrd so‘m xarajatlari prognoz qilingan².



1-rasm. O‘zbekistonning savdo aylanmasida elektron savdoning tutgan ulushi, %³

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatning savdo aylanmasida elektron savdoning tutgan ulushi 2024 yilda 1,755 foiz ulushni tashkil etib, bu ko‘rstkich o‘tgan davrlarda mos ravishda 1,852; 2,057; 1,374 birliklarni tashkil etgan.

Ta’kidlash kerakki, 2023-yilda tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat orqali amalga oshirilgan jami tovar (xizmat) aylanmasi 3,6 trln so‘mni tashkil etgan, 2022-yilda 3 trln so‘m bo‘lgan. Bunda, 2023-yilda foyda solig‘i bo‘yicha 20,1 mlrd so‘m, 2022-yilda 25,1 mlrd so‘m, aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha 1,9 mlrd so‘m, 2022-yilda 1 mlrd so‘m miqdoridagi imtiyozlar elektron tijorat ishtirokchilari ixtiyorida qoldirilgan⁴.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.10.2024 yildagi 712-sonli, “Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorida tovarning mahalliy lashtirish darajasi(x)ni quyidagicha aniqlash belgilangan:

$$x = \left(1 - \frac{I}{T}\right) \times 100$$

² Budjetnoma 2025-2027. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

³ O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi (<https://stat.uz/uz/>).

⁴ Budjetnoma 2025-2027. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

Bunda, I-import bo'ladigan xom ashyo, material va butlovchi qismlarning xorijiy valyutadagi qiymati (bojxona to'lovlarini hisobga olgan holda)ning so'mdagi ifodalangan summasi; T- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)larini sotish tahlilida: ishlab chiqarayotgan tovarlarining foydaliligi; realizatsiya xajmini prognozlash va tahlil natijalari asosida faoliyatni samarali boshqaradi.

Oy-li kompaniyasi savdo jarayonida asosan 16 parametrdan mahsulot (ish, xizmat)larni sotish tahlilini amalga oshirgan⁵. Oy-li kompaniyasi savdo jarayoniga: 2Q1D yondoshuv, hisobot tuzish, elektron doska, natijalar bilan bo'limlarni tanishtirish, to'lovlar tarixi bilan tanishish kabi qator yo'nalishlarda baholab borgan.

Ural davlat agrar universiteti pedagog-kadrlari E.M.Kot, I.F.Pilnikova va boshqalar mahsulot (ish, xizmat)larni sotish tahlilini 4 bosqichda: jarayonni ichki tahlilini olib borish; ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish; ko'rsatkichlarni baholash; omillar ta'sirini o'rganish bilan tavsiya etgan⁶.

B.Qlichev mahsulot sotishni mahsulotning texnik va iqtisodiy parametrlaridan kelib chiqqan holda, iste'molchilar manfaatlari, istak-hoxishlarini inobatga olib, CVP-tahlilini o'tkazgan⁷.

Jarayonning mazmun - mohiyatidan kelib chiqib iqtisodiy tahlil usullarini to'g'ri tanlanishi faoliyat samaradorligini ta'minlash borasida asosli va sifatli qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunidan kelib chiqib, davlat va korporativ xaridlarini nazariy o'yin usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu usulda A.M.Jemkova, L.M.Nikitina, T.N.Gogoleva izlanishlar olib borib, ilmiy kuzatuvlari asosida nazariy o'yin modellarini taklif etgan⁸.

Natija va muhokama

O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunida jarayon subyektlari aniq keltirilgan. Unga asosan:

1) budjet buyurtmachilari: davlat organlari va muassasalari; budjet tashkilotlari; xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan budjet mablag'larini oluvchilar; davlat maqsadli jamg'armalari; budjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg'armalar;

2) korporativ buyurtmachilar: ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar; ustav fondida (ustav kapitalida) ulushi

⁵ <https://blog.oy-li.ru/analiz-prodazh/>

⁶ Кот Е.М., Пилникова И.Ф. ОБРАЗОВАНИЕ И ПРАВО № 2 • 2023 (<https://cyberleninka.ru/article/n/metody-analiza-prodazh/viewer>).

⁷ Qlichev B. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842. May 2022 / Volume 3 Issue 5. (https://www.researchgate.net/publication/361023615_Masulot_sotis_azmi_talilini_takomillastiris_masalalari).

⁸ Жемкова А. М., Никитина Л. М., Гоголева Т. Н.. Анализ эффективности процедур государственных закупок на основе теоретико-игровых моделей. Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление. 2023. № 4. с. 20–32.

jami 50 foiz va undan ortiq bo'lgan budget tashkilotlari, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan budget mablag'larini oluvchilar, ustav fondida (ustav kapitalida) ulushi jami 50 foiz va undan ortiq bo'lgan davlat maqsadli jamg'armalari faoliyat subyekti bo'ladi.

Davlat xaridlari tahlilida mahsulot (ish, xizmat)lar savdosi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rganiladi. Uning yordamida biznesni rivojlantiruvchi samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Xususan, mahsulot (ish, xizmat)lar assortimentini kengayirish kerakmi, qaysi reklama kanallaridan foydalanish zarur, qancha miqdorda va kimga tovarlar taklif qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Manbalarda mahsulot (ish, xizmat)lar savdosi tahlilini ko'pgina usullari keltirilgan. Jumladan:

1. 2Q1D - Quantity (miqdor) va Quality (sifat), D – Developing (rivojlanish) mahsulot (ish, xizmat)lar miqdori yoki miqdoriy nisbatlarini, sifat va obyektlardagi yangi shakllarning paydo bo'lishini ifodalovchi ko'rsatkichlar asosida baholash usuli. 2Q1D yondoshuvini asosan ABC XYZ tahlili bilan: -mijozlarni tovarlarga bo'lgan talabini xajmi; xaridorlar migratsiyasini baholagan. Shu o'rinda, kompaniya mahsulot (ish, xizmat)larni sotishning 8-9-parametrlarida xaridor hamda tovarlarni ABC XYZ usulida o'rganib, mijozlarni migratsiyasini baholagan va bizningch takroriy jarayonni yuzaga keltirgan.

Bizningcha, 2Q1D - Quantity (miqdor)da mahsulot (ish, xizmat)lar sotilishini miqdor jihatdan amaldagi va solishtirma baholarda tahlil etib, xulosa – takliflar ishlab chiqish; Quality (sifat)da tovarlarni navlilik va o'rtacha sotish bahosini tahlili asosida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, D – Developing (rivojlanish)da prognoz ko'rsatkichlari bilan tavsiyalar berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2. Hisobot usulida – savdo jarayoni tezkor tahlil ko'rsatkichlari bo'yicha o'rganilib, jarayonning kunlik natijasi, rejalashtirilgan ko'rsatkichlari omilli baholanadi.

3. Savdo subyektlari salohiyatini o'rganish asosida kimga va qancha miqdorda mahsulot (ish, xizmat)lar sotish kerakligi o'rfaniladi. Manbaalarda, monografik kuzatishlardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, ushbu ko'rsatkich sotib olinayotgan tovarlar tarkibida xaridorning tutgan ulushiga qarab yoki mijozlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazib, natijasiga qarab xulosa-takliflar berilgan. Jumladan, har qanday usulda aniqlangan xaridor salohiyati 50-80 foiz bo'lganda mahsulot (ish, xizmat)lar savdoda o'ta yuqori darajadagi tovar sifatida baholangan. 45 foizda normal, 5-10 foizda past ko'rsatkichli tovarlar sifatida qaralgan.

4. ABS XYZ bo'yicha xaridor va mahsulot (ish, xizmat)lar tahlilida savdo xajmi (A-katta, B-o'rta, C-kichik xajmda savdo) va davomiyligi (X-xar doim, Y-qisman savdo va Z-umuman xarid qilmaslik) kategoriyalari bilan baholanib, hulosa va takliflar tayyorlanadi.

5. Mahsulot (ish, xizmat)larga haridorning sodiqligi(Promoter Score – NPS)ni muhokamasi ular bilan tuzilgan shartnomalar davomiyligi va buyurtmalar xajmidan kelib chiqib aniqlanadi.

6. LTV (Lifetime Value — mijozdan hayoti davomida olgan daromadi), ARS (average revenue per customer — haridordan olinadigan foyda), CRR(Customer Retention Rate — mijozni ushlab turish) ko'rsatkichlari asosida mahsulot (ish, xizmat)lar sotishni tahlilida ko'rsatkichlar quyidagicha aniqlangan:

6.1. $LTV=S*C*P*T$ (bunda, S-sotib olingan mahsulot chekini o'rtacha qiymati, C-bir yda o'rtacha xarid, P-cekning o'rtacha daromadligi, %, T-bir oyda o'rtacha tovar xaridining soni);

6.2. $ARS=S*C*P$;

6.3. $CRR=((E-N)/P)*100$ (bunda, E-hisobot davri oxiriga xaridorlar soni, N-bu davrda qo'shilgan yangi sotib oluvchilar soni, P-o'rganilayotgan davr boshiga mijozlar soni).

7. CRM tahlilida savdo jarayoni avtomatlashtiriladi va hisob-kitoblarda kamchiliklar kamayib, inson omilini ishtiroki minimallasadi. Biroq savdo jarayonining samarali tahlili amalga oshiriladi;

8. Reklamaning mahsulot (ish, xizmat)larni sotish jarayonidagi samaradorligini baholashda Yandeks, *Google Analytics* va boshqa servislardan foydalanib haridorning qancha vaqt davomida sizning saytingizda bo'lgani kabi ko'plab savollarga javob olinadi.

Xulosa

Mahsulot (ish, xizmat)larni sotish tahliliga manbaalarda turlicha yondoshuvlar bo'lsada belgilangan maqsadga erishish borasida o'ziga xos yutuqlarga ega. Shu o'rinda qayd etish zarurki, tahlil usullarida takroriylik va to'ldirishga extiyoj sababli mahsulot (ish, xizmat)larni sotishni o'rganishni quyidagicha tashkil etish orqali samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish mumkin deb hisoblayman:

1. 2Q1D - Quantity (miqdor) va Quality (sifat), D – Developing (rivojlanish) mahsulot (ish, xizmat)lar miqdori yoki miqdoriy nisbatlarini, sifat va obyektlardagi yangi shakllarning paydo bo'lishini ifodalovchi ko'rsatkichlar asosida baholash;

2. ABS XYZ bo'yicha xaridor va mahsulot (ish, xizmat)lar tahlilida savdo xajmi (A-katta, B-o'rta, C-kichik xajmda savdo) va davomiyligi (X-xar doim, Y-qisman savdo va Z-umuman xarid qilmaslik) kategoriyalari bilan baholanib, hulosasi va takliflar tayyorlanadi.

3. Mahsulot (ish, xizmat)larga haridorning sodiqligi(Promoter Score – NPS)ni muhokamasi ular bilan tuzilgan shartnomalar davomiyligi va buyurtmalar tahlili;

4. LTP (Lifetime Value — mijozdan hayoti davomida olgan daromadi), ARS (average revenue per customer — haridordan olinadigan foyda), CRR(Customer

Retention Rate — mijozni ushlab turish) ko'rsatkichlari asosida mahsulot (ish, xizmat)lar sotishni tahlili;

5. CRM tahlilida savdo jarayoni avtomatlashtiriladi va hisob-kitoblarda kamchiliklar kamayib, inson omilini ishtiroki minimallasadi. Biroq savdo jarayonining samarali tahlili amalga oshiriladi;

6. Reklamaning mahsulot (ish, xizmat)larni sotish jarayonidagi samaradorligini baholashda Yandex, *Google Analytics* va boshqa servislardan foydalanib haridorning qancha vaqt davomida sizning saytingizda bo'lgani kabi ko'plab savollarga javob olinadi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.10.2024 yildagi 712-sonli, "Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

3. Budjetnoma 2025-2027. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

4. Жемкова А. М., Никитина Л. М., Гоголева Т. Н.. Анализ эффективности процедур государственных закупок на основе теоретико-игровых моделей. Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление. 2023. № 4. с. 20–32.

5. Кот Е.М., Пилникова И.Ф. ОБРАЗОВАНИЕ И ПРАВО № 2 • 2023 (<https://cyberleninka.ru/article/n/metody-analiza-prodazh/viewer>).

6. Yakubov Ulugbek Kasimovich, Abdullaev Abror Bozarboevich, Pardaev Fayzulla Gaffarovich. Elaboration issues of the reflection and analysis of tax assets (liabilities) in financial statements. Multidisciplinary journal of science and technology. 2025.3.7.

7. Qlichev B. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842. May 2022 / Volume 3 Issue 5. (https://www.researchgate.net/publication/361023615_Masulot_sotis_azmi_talilini_takomillastiris_masalalari).

8. <https://blog.oy-li.ru/analiz-prodazh/>